# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
# YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI


## JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI SAMARQAND FILIALI


# “TA’LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY-ME’YORIY HUJJATLARI”

**“Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi” yo‘nalishi bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini malakasini oshirish kursi uchun**


**O‘qituvchi: Begimqulov Zarif Axmadovich**

# MAVZU: JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIGA OID QONUN, FARMON, FARMOYISH, QARORLARNING MAZMUNI. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING “KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH TO‘G‘RISIDA”GI QONUNI.

## DARS REJASI:

1.O‘zbekiston Respublikasi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonunining mazmun-mohiyati

2.Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari va uning oldini olish omillari

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga oid huquqiy-me’yoriy hujjatlarining mazmun-mohiyati

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga oid huquqiy-me’yoriy hujjatlarining mazmun-mohiyati



# O‘zbekiston Respublikasi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonunining mazmun - mohiyati

O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida” Qonuni 1992- yil 14-yanvarda qabul qilindi.



2015-yil 4-sentabrda “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi

Mazkur qonun 8 ta bob va 47 ta moddadan iborat bo’lib, 2020-yil 3-dekabrda 8-moddasining ikkinchi qismi o‘n to‘rtinchi xatboshisiga, 10-moddasining birinchi qismi to‘rtinchi xatboshisiga, 32 moddasining birinchi qismiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

# Mazkur qonunning 4-moddasida jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat ekanligi belgilab qo‘yilgan:

- jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash
- jismoniy tarbiya va sport sohasida kamsitishga hamda zo‘ravonlikka yo‘l qo‘ymaslik
- har kimning jismoniy tarbiya va sport bilan erkin shug‘ullanishga bo‘lgan huquqini ta’minlash
- sportning barcha turlari va tarkibiy qismlarini rivojlantirishga ko‘maklashish
- jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat hamda jamoat boshqaruvini uyg‘unlashtirish
- fuqarolarni jismoniy tarbiyalashning uzluksizligi va davomiyligini ta’minlash
- fuqarolarning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi huquqlarining davlat kafolatlarini belgilash
- xalqaro hamkorlikni amalga oshirish

## 4-modda

jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning, shuningdek jismoniy tarbiya va sport tadbirlari ishtirokchilari hamda tomoshabinlarining hayoti va sog‘lig‘i xavfsizligini ta’minlash

nogironlar va jismoniy imkoniyatlari cheklangan boshqa shaxslar, shuningdek yuqori darajada ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi guruhlari o‘rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga ko‘maklashish

O‘zbekistonning milliy sport turlari va xalq o‘yinlarini rivojlantirish hamda ommalashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish

## Qonunning 23-moddasiga binoan O‘zbekiston Respublikasida quyidagi sport unvonlari, sport razryadlari, malaka toifalari belgilanadi:

**sport unvonlari:**

1. Xalqaro toifadagi O‘zbekiston sport ustasi yoki xalqaro grossmeyster

2. O‘zbekiston sport ustasi yoki O‘zbekiston grossmeysteri

# sport razryadlari:

- birinchi sport razryadi
- ikkinchi sport razryadi
- uchinchi sport razryadi
- o‘smirlar uchun birinchi sport razryadi
- o‘smirlar uchun ikkinchi sport razryadi
- o‘smirlar uchun uchinchi sport razryadi
- O‘zbekiston sport ustaligiga yoki O‘zbekiston grossmeysterligiga nomzod




Lotincha **"corruptio"** so'zidan olingan bo'lib, **"emirilish", "buzilish"** degan ma'nolarni anglatadi.

**Korrupsiya so'zining ijtimoiy ko'rinishi** «hokimiyatni buzish, chiritish orqali sotib olish» degan ma'noni beradi.

**Korrupsiya** – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish *(O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni, 3-modda).*

# KORRUPSIYANING SALBIY OQIBATLARI:

1) demokratiya va inson huquqlari institutlarning mustahkamlanishiga jiddiy putur yetkazadi;

2) keng jamoatchilikda hokimiyatga bo‘lgan ishonchni so‘ndiradi;

3) jamiyatdagi tinchlik, osoyishtalik, adolat, qonun ustuvorligi kabi ijtimoiy-huquqiy qadriyatlarning buzilishiga olib keladi;

4) bozor iqtisodiyoti qonuniyatlarining buzilishi, yashirin iqtisodiyotning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga zamin yaratadi;

5) davlat byudjetiga jiddiy zarar etkazadi va boshq.






# O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni




**Qonun 34 moddadan iborat bo‘lib, ushbu hujjatda quyidagilar qayd etilgan:**

- \- korrupsiya atamasining tushunchasi;
- \- korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari;
- \- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari;
- \- korrupsiyaga qarshi kurashuvchi vakolatli organlar va ularning vazifalari;
- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish;
- \- korrupsiyni oldini olishga doir chora-tadbirlar;
- \- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga chek qo‘yish, javobgarlikning muqarrarligi;
- \- korrupsiyaga qarshi javobgarlik;
- \- korrupsiyaga qarshi kurashish masalasida xalqaro hamkorlik.

# O‘ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR:

**Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Davlat dasturlari tasdiqlandi** *(O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 fevraldagi PQ-2752-sonli «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va 2019 yil 27 maydagi PF-5729-sonli “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni)*;

- **Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi tashkil etildi (keyinchalik, korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi va uning hududiy kengashlari)** *(O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 fevraldagi PQ-2752-sonli qarori, 2020 yil 29 iyundagi PF-6013-sonli “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni).*
- **O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligining tashkil etildi** *(O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi PF-6013-sonli “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni).*




# O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga oid huquqiy-me’yoriy hujjatlarining mazmun-mohiyati



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 1-apreldagi “**Qishloq joylardagi bolalar sporti obyektlarida band bo‘lgan ayol sport ustozlari mehnatini rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**” PQ-1315-son qarori

2010-yil 1-apreldan boshlab quyidagilarning tarif stavkalariga har oyda 15 foiz miqdorda ustama haq belgilash joriy qilindi

1. qishloq joylardagi umumta’lim maktablarida, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida jismoniy tarbiya o‘qituvchisi bo‘lib ishlayotgan ayollar
2. qishloq joylardagi bolalar — o‘smirlar sport maktablarida sport ustozi bo‘lib ishlayotgan ayollar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi **“Aholining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash tizimini joriy etishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi** PQ-5148-son qarori



**1. Baholash tizimi bo‘yicha sport sinovlari maxsus va ixtiyoriy ravishda aholining yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo‘lgan qatlami va undan kattalarning jismoniy tayyorgarligini aniqlaydi;**



**2. Sport sinovlari pog‘ona va murakkablik darajasidan kelib chiqib, 15 turdagi, shu jumladan uzoq va qisqa masofalarga yugurish hamda suzish, turnikda tortilish, anjomlarni uloqtirish va boshqa mashqlardan iborat bo‘ladi;**



**3. Sport sinovlari ishtirokchilariga 11 ta yosh toifasi bo‘yicha egallagan o‘rni va darajasiga qarab sport razryadlari va unvonlari beriladi hamda ular moddiy va boshqa sovg‘alar bilan rag‘batlantiriladi;**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi “**Sport ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo‘yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**” PQ-5279-son qarori

**Har bir mahalla, umumiy o‘rta ta’lim maktabi, o‘rta maxsus professional ta’lim muassasasida**

→

**Jamoaviy sport turlari (basketbol, voleybol, gandbol, futbol va boshqalar) bo‘yicha jamoalar tuziladi.**

→

**Bunda, umumiy o‘rta ta’lim maktablari va o‘rta maxsus professional ta’lim muassasalaridagi jamoalarga — jismoniy tarbiya o‘qituvchilari mas’ul etib belgilanadi.**

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-apreldagi “Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-201-son qaroriga asosan**

**“Besh tashabbus olimpiadasi” hamda olimpiya, noolimpiya va milliy sport turlari bo‘yicha uch bosqichli umumrespublika sport musobaqalari davomida g‘olib va sovrindorlarni (1 — 3 o‘rin) tayyorlagan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari**

tuman (shahar) bosqichi musobaqalarida g‘olib va sovrindorlarni tayyorlagani uchun — **ikkinchi malaka toifasi;**

viloyat bosqichi musobaqalarida g‘olib va sovrindorlarni tayyorlagani uchun — **birinchi malaka toifasi;**

respublika (final) bosqichida g‘olib va sovrindorlarni tayyorlagani uchun — **oliy malaka toifasi.**



O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi** 572-son qarori




Attestatsiyaning asosiy prinsiplari majburiylik, davriylik, oshkoralik, kengashib ish ko‘rish hamda xolislik

Pedagog kadrlar har besh yilda bir marta navbatdagi majburiy attestatsiyadan o‘tkaziladi

Pedagog kadrlar o‘z xohishiga ko‘ra navbatdan tashqari attestatsiyadan o‘tkazilishi mumkin

Attestatsiyaga ta’lim tashkilotlarining oliy ma’lumotli pedagog kadrlari jalb etiladi

Pedagog kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish ikki bosqichda amalga oshiriladi hamda ikkita bosqich bo‘yicha umumiy 100 ballik tizimda baholanadi

## Quyidagi pedagog kadrlarga malaka toifasi (lavozim) to‘g‘ridan to‘g‘ri (attestatsiyadan o‘tkazilmasdan) beriladi:

**jismoniy tarbiya fan olimpiadasining, shuningdek, “Besh tashabbus olimpiadasi”, olimpiya, noolimpiya va milliy sport turlari bo‘yicha uch bosqichli umumrespublika sport musobaqalarining:**

tuman (shahar) bosqichi g‘olibi va sovrindorlarini (1-3-o‘rin) tayyorlagan umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilariga — ikkinchi malaka toifasi

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosqichi g‘olibi va sovrindorlarini (1- 3-o‘rin) tayyorlagan umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilariga — birinchi malaka toifasi

xalqaro hamda respublika (final) bosqichi g‘olibi va sovrindorlarini (1-3-o‘rin) tayyorlagan umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilariga — oliy malaka toifasi (bosh o‘qituvchi lavozimi);

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi “**Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi 355-son qarori

**Quyidagilar tasdiqlandi**

- Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining tuzilmasi
- Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti filiallarining namunaviy tuzilmasi
- Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizom

# Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish

**Qayta tayyorlash** quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

pedagogik qayta tayyorlash;
kasbiy qayta tayyorlash;
maxsus o‘quv kurslarda o‘qitish.

**Malaka oshirish** quyidagi shakllarni o‘z ichiga oladi:

bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) malaka oshirish;
muqobil malaka oshirish;
mustaqil malaka oshirish.
ilmiy-tadqiqot muassasalarida tajriba orttirish;
xorijda tajriba orttirish.

| | |
|---|---|
| Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarning malaka oshirish davriyligi | **to'rt yilda kamida bir marta malaka** |
| Malaka oshirish shakllarining umumiy davomiyligi | **kamida 4 hafta (144 soat)** |
| Pedagogik qayta tayyorlash | **kamida 4 oy (576 soat)** |
| Kasbiy qayta tayyorlash | **kamida 4 oy (576 soat);** |
| maxsus o'quv kurslari | **3 oy (432 soat), 6 oy (864 soat), 10 oy (1440 soat)** |

***E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!***

